

2023- yil yanvar-may oyi uchun  
dastlabki ma'lumot



## NAMANGAN VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI

Tashqi iqtisodiy faoliyat  
va savdo statistikasi bo'limi:  
(69) 227-84-95



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Namangan viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, viloyatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Namangan viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importini optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, **2023-** yil yanvar-may oyida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) **529,7 mln. AQSH dollariga yetdi va 2022-** yilning yanvar-may oylariga nisbatan **20,8 mln. AQSH dollariga yoki 4,1 % ga ko'paydi.**



### TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-may, mln. AQSH dollari)



#### Tashqi savdo aylanmasi

2023- y.: **529,7** +4,1 %

(2022- y.: **508,9**)



Saldo

2023- y.: - **96,1** (2022 y.: - **68,0**)



#### Eksport

2023- y.: **216,8** -1,7 %

(2022- y.: **220,4**)



Tovarlar: **210,8**



#### Import

2023- y.: **312,9** +8,5 %

(2022- y.: **288,5**)



Tovarlar: **312,9**

## Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va

importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarning tashqi savdo statistikasi O‘zbekiston Respublikasi bojaxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojaxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo’shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobini tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi **216,8** mln. AQSH dollariga (**1,7 %** ga kamaydi) va import hajmi **312,9** mln. AQSH dollariga (**8,5 %** ga ko‘paydi) yetdi. Hisobot davrida **-96,1** mln. AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.



### NAMANGAN VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO’LGAN DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-may, mln. AQSH dollari)

Rossiya	XXR	Qozog‘iston	Turkiya	Germaniya
<b>TSA – 122,3</b>	<b>TSA – 116,4</b>	<b>TSA – 46,7</b>	<b>TSA – 42,6</b>	<b>TSA – 18,6</b>
Eksport: 78,5 Import: 43,8	Eksport: 16,9 Import: 99,5	Eksport: 19,8 Import: 26,9	Eksport: 16,5 Import: 26,2	Eksport: 3,7 Import: 14,9
 23,1 %	 22,0 %	 8,8 %	 8,0 %	 3,5 %
Polsha	Belarus	Qirg‘iz Respublikasi	Koreya Respublikasi	Litva
<b>TSA – 18,2</b>	<b>TSA – 16,0</b>	<b>TSA – 15,2</b>	<b>TSA – 11,9</b>	<b>TSA – 10,3</b>
Eksport: 7,3 Import: 10,9	Eksport: 2,0 Import: 14,2	Eksport: 10,4 Import: 4,9	Eksport: 2,8 Import: 9,1	Eksport: 0,3 Import: 10,1
 3,4 %	 3,0 %	 2,9 %	 2,2 %	 2,0 %

Namangan viloyati jahoning **71** mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Rossiyada (**23,1** %), XXRda (**22,0** %), Qozog'istonda (**8,8** %), Turkiyada (**8,0** %), Germaniyada (**3,5** %), Polshada (**3,4** %) va Belarussiyada (**3,0** %) qayd etilgan.



Shuningdek, qo'shni davlatlar bilan o'zaro aloqalarni mustahkamlash, mamlakatlarni iqtisodiy-ijtimoiy, savdo-sanoat hamda madaniy sohalardagi aloqalarini rivojlantirish borasida katta ishlar amalga oshirilayotganini ko'rish mumkin.

Xususan, , Qozog'iston, Eron va Azerbaydjon kabi qo'shni davlatlar bilan TSAda so'nggi yillarda katta o'zgarishlar kuzatilyapti. Misol uchun, so'nggi uch yilda TSA Tojikiston va Qozog'iston bilan **1,3** barobarga oshdi.



### TASHQI SAVDO PROFITSITI BO'LGAN ASOSIY UCH DAVLAT (2023- yil yanvar-may, mln. AQSH dollarri)

Rossiya – 122,3



Qozog'iston – 46,7



Qirgi'z Respublikasi – 15,2



Tashqi iqtisodiy faoliyat bo'yicha **20** ta yirik hamkor-davlatlar orasidan uchta davlatda ijobjiy tashqi savdo balansi kuzatilgan. Xususan, Afg'oniston, Qirg'iz Respublikasi va Tojikiston davlatlari shular jumlasidandir. Qolgan **17** ta davlatlar bilan manfiy tashqi savdo balansi saqlanib qolmoqda.



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

*(yanvar-may, mln. AQSH dollar)*

Davlatlar	2021- y.	2022- y.	2023- y.	
<b>Rossiya</b>	<b>116,4</b>	<b>143,3</b>	<b>122,3</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	77,4 39,0	98,8 44,4	78,5 43,8
<b>XXR</b>	<b>110,5</b>	<b>146,3</b>	<b>116,4</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	26,4 84,1	22,5 123,9	16,9 99,5
<b>Qozog'iston</b>	<b>45,9</b>	<b>39,0</b>	<b>46,7</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	15,4 30,5	14,3 24,7	19,8 26,9
<b>Turkiya</b>	<b>40,6</b>	<b>42,1</b>	<b>42,6</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	10,9 29,7	23,6 18,6	16,5 26,2
<b>Germaniya</b>	<b>4,7</b>	<b>12,2</b>	<b>18,6</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,6 4,0	3,2 8,9	3,7 14,9
<b>Polsha</b>	<b>5,9</b>	<b>7,7</b>	<b>18,2</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	3,6 2,4	4,2 3,5	7,3 10,9
<b>Belarus</b>	<b>4,3</b>	<b>7,6</b>	<b>16,0</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	1,1 3,2	0,8 6,8	2,0 14,1
<b>Qirg'iz Respublikasi</b>	<b>22,9</b>	<b>36,5</b>	<b>15,2</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	20,5 2,3	31,1 5,4	10,4 4,9
<b>Koreya Respublikasi</b>	<b>4,0</b>	<b>8,5</b>	<b>11,9</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,1 3,9	0,9 7,6	2,8 9,1
<b>Litva</b>	<b>1,2</b>	<b>8,0</b>	<b>10,3</b>	
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,3 0,9	0,2 7,8	0,3 10,1

<b>Davlatlar</b>	<b>2021- y.</b>	<b>2022- y.</b>	<b>2023- y.</b>
<b>Italiya</b>	<b>2,2</b>	<b>2,9</b>	<b>7,3</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,6 1,6	1,0 6,4
<b>Hindiston</b>	<b>9,4</b>	<b>5,0</b>	<b>7,1</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,7 8,7	0,3 4,7
<b>Malayziya</b>	<b>3,1</b>	<b>2,2</b>	<b>6,6</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	- 3,1	- 2,2
<b>Fransiya</b>	<b>3,9</b>	<b>4,0</b>	<b>5,9</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	- 3,9	- 4,0
<b>Tojikiston</b>	<b>2,1</b>	<b>3,7</b>	<b>3,8</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	1,5 0,6	1,6 2,1
<b>Eron</b>	<b>1,8</b>	<b>3,4</b>	<b>3,6</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	- 1,8	1,1 2,4
<b>Ozarbajyon</b>	<b>0,3</b>	<b>1,6</b>	<b>3,4</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,3 -	1,1 0,5
<b>Shveytsariya</b>	<b>1,2</b>	<b>1,6</b>	<b>3,2</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	- 1,2	- 1,6
<b>Ukraina</b>	<b>6,0</b>	<b>6,6</b>	<b>2,7</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	3,5 2,5	3,1 3,5
<b>Respublika Moldova</b>	<b>0,9</b>	<b>0,9</b>	<b>2,5</b>
	<i>Eksport</i> <i>Import</i>	0,9 -	2,1 0,3



## NAMANGAN VILOYATIDA TUMANLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023-yil yanvar-may)\*


	Hajm Mln. AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Namangan viloyati	529,7	104,1	100,0
Namangan sh	243,3	133,2	46,1
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	6,6	57,5	1,2
Kosonsoy	39,0	105,9	7,4
Namangan	22,7	72,8	4,3
Norin	27,1	197,3	5,1
Pop	14,1	85,2	2,7
To'raqo'rg'on	61,0	114,3	11,5
Uychi	35,8	84,8	6,8
Uchqo'rg'on	14,8	59,2	2,8
Chortoq	15,9	85,8	3,0
Chust	34,6	65,4	6,5
Yangiqo'rg'on	13,9	60,4	2,6



Viloyatda tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri **46,1 %** ulush bilan **243,3 mln. AQSH dollarini**, eng quyisi ulushni esa Mingbuloq tumani **1,2 %** ulush bilan **6,6 mln. AQSH dollarini** tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## NAMANGAN VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMILAKATLARI VA BOSHQA XORIJYIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollarri, ulushi, % da)



2023- yil yanvar-may oyida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi **47,3 %** ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 2022- yilning mos davriga nisbatan **2,7 %** ga kamayib, so'ngi uch yilda eng past ko'rsatkichni qayd etdi.



Namangan viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2023- yilning yanvar-may oyida 2022- yilning mos davriga nisbatan **1,5 %** ga ko'paydi va jami TSAdagi ulushi **52,7 %** ni tashkil etdi.

Namangan viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2023- yil yanvar-may holatiga ko'ra, **215,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport **120,8** mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import **68,2** mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



## O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING MDH DAVLATLARI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI (2023- yil yanvar-may, mln. AQSH dollari)

### Rossiya

TSA – 122,3  
Eksport – 78,5  
Import – 43,8



### Qozog'iston

TSA – 46,7  
Eksport – 19,8  
Import – 26,9



### Qirg`iz Respublikasi

TSA – 15,2  
Eksport – 10,4  
Import – 4,9



### Belarus

TSA – 16,0  
Eksport – 2,0  
Import – 14,1



### Ozarbaujon

TSA – 3,4  
Eksport – 3,2  
Import – 0,2



### Tojikiston

TSA – 3,8  
Eksport – 3,1  
Import – 0,8



### Ukraina

TSA – 2,7  
Eksport – 1,2  
Import – 1,4



### Moldova

TSA – 2,5  
Eksport – 2,1  
Import – 0,3



### Turkmaniston

TSA – 2,3  
Eksport – 1,6  
Import – 0,8



### Armaniston


TSA – 0,9  
Eksport – 0,8  
Import – 0,0



Namangan viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (**56,7** %), Qozog'iston (**21,6** %) hamda Belarus (**7,4** %) davlatlari bilan qayd etildi.

## NAMANGAN VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollar, ulushi, % da)



Jami tashqi savdo  
aylanmasidagi ulushi

38,0 %

Jami eksportdagи ulushi

51,4 %

Jami importdagи ulushi

28,6 %

Namangan viloyatining Yevroosyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi **201,1** mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi **111,5** mln. AQSH dollar, import hajmi esa **89,6** mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIIning a'zo davlatlari (Rossiya, Belarus, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.


## NAMANGAN VILOYATI EKSPORTI



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyordi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida eksportyordi soni **326** taga yetdi va ular tomonidan **216,8** mln. AQSH dollari qiymatidagi (2022- yilning mos davriga nisbatan **1,7 %** ga kamaydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI (2023- yil yanvar-may, ulushi % da)



O'zbekiston Respublikasida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (**keyingi o'rinnlarda TIF TN**) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (**keyingi o'rinnlarda – XSST**) ishlataladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni **XSST** bo'yicha kodlashtirish, **TIF TN** va **XSST** o'tasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## NAMANGAN VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI

*(yanvar-may, yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollarri		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
	Jami eksport	220,4	216,8	127,8	98,3	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	28,2	28,3	104,2	100,3	12,8	13,1
Ichimliklar va tamaki	0,5	1,5	3,0 m.	3,0 m.	0,2	0,7
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3,0	3,6	81,2	120,3	1,3	1,6
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	3,4	1,6	3,0 m.	47,0	1,6	0,7
Sanoat tovarlari	129,1	108,3	135,6	83,9	58,6	50,0
Mashinalar va transport asbob-uskunalarini	2,3	6,3	54,7	2,7 m.	1,0	2,9
Turli xil tayyor buyumlar	48,7	57,0	131,1	117,1	22,1	26,3
Boshqa tovarlar	0,9	4,2	-	-	0,4	1,9
Xizmatlar	4,4	6,0	118,5	136,6	2,0	2,8


Ekspert tarkibida tovarlar ulushi **97,2 %** ni tashkil etib, ular sanoat tovarlari (**50,0 %**), turli xil tayyor buyumlar (**26,3 %**) va Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**13,1 %**) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda - tovarlar kelib chiqgan mamlakat, agar kelib chiqgan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2023-yilning yanvar-may oyida MDH mamlakatlariiga **157,6** mln. AQSH dollarini qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning **72,7 %** ini tashkil etdi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollarini, ulushi, % da)



2023-yil yanvar-may oyida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi, XXR, Polsha va Turkiya kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy Eksportdagi ulushi **70,6 %** ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023-yil yanvar-may, % da)





## NAMANGAN VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Rossiya Federatsiyasi	98,8	78,5	127,7	79,4	1	1
Qozog'iston	14,3	19,8	93,2	138,6	5	2
Xitoy	22,5	16,9	85,2	75,3	4	3
Turkiya	23,6	16,5	2,2 m.	69,9	3	4
Qirg'iziston	31,1	10,4	151,6	33,3	2	5
Polsha	4,2	7,3	115,8	174,4	6	6
Germaniya	3,2	3,7	5,0 m.	112,7	7	7
Ozarbayjon	1,1	3,2	3,8 m.	2,9 m.	12	8
Tojikiston	1,6	3,1	107,8	193,0	10	9
Koreya Respublikasi	0,9	2,8	10,0 m.	3,1 m.	15	10
Afg'oniston	1,4	2,2	77,8	159,8	11	11
Moldova Respublikasi	0,7	2,1	69,4	3,3 m.	19	12
Belarus	0,8	2,0	75,7	2,3 m.	17	13
Turkmaniston	2,5	1,6	2,7 m.	62,0	9	14
Birlashgan Arab Amirliklari (BAA)	0,8	1,3	31,8 m.	175,5	18	15
Belgiya	0,9	1,3	2,3 m.	151,3	16	16
Ukraina	3,1	1,2	88,1	40,0	8	17
Eron	1,1	1,2	-	111,4	13	18
Quvayt	0,0	1,2	-	-	20	19
Italiya	1,0	0,9	161,8	91,9	14	20



## NAMANGAN VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2023- yil yanvar-may)\*

	Hajm Mln. AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Namangan viloyati	216,8	98,3	100
Namangan sh	83,7	125,0	39,0
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	1,6	22,3	0,7
Kosonsoy	29,3	180,2	13,5
Namangan	10,1	86,8	4,7
Norin	3,4	104,4	1,6
Pop	5,3	71,1	2,5
To'raqo'rg'on	37,3	92,0	17,2
Uychi	14,0	73,2	6,4
Uchqo'rg'on	11,4	65,5	5,3
Chortoq	1,0	117,4	0,4
Chust	14,6	84,3	6,7
Yangiqo'rg'on	4,1	37,6	1,9



Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri **39,0 %** bilan **83,7 mln. AQSH dollarini**, eng quyisi ulushni esa Chortoq tumani **0,4 %** bilan **1,0 mln. AQSH dollarini** tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



## TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI




So'nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo'shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan Namangan viloyati uchun muhim soha bo'lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo'shilishini ta'minlaydi.

To'qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishi bevosita paxta xom-ashyosini o'rniغا tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo'shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.

Xususan, 2023- yil yanvar-may oyi yakuni bo'yicha **162,8 mln. AQSH dollarilik** to'qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning **75,1 %** ini tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan **1,4 %** ga kamaaydi.

Eksport qilingan to'qimachilik mahsulotlari tarkibida tayyor to'qimachilik mahsulotlari (**25,4 %**), tayyor trikotaj kiyimlar (**24,2 %**) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan **62** turdag'i to'qimachilik mahsulotlari dunyoning **24** ta davlatiga eksport qilindi.

### TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollar)

	2022- yil	2023- yil
 Ip kalava	65,0	-
 Tayyor to'qimachilik mahsulotlari	28,7	41,3
 Gazlamalar	15,4	17,9
 Trikotaj mato	4,3	5,1
 Tayyor trikotaj kiyimlar	30,1	39,4

## DAVLATLAR KESIMIDA TO'QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollari)

	2022- yil	2023- yil	O'sish sur'ati, % da
	Rossiya	86,1	50,2
	Qozog'iston	4,5	13,5
	Qirg'iziston	19,2	7,4
	Polsha	4,0	6,3
	Germaniya	3,2	3,5
	Ozarbayjon	0,2	2,3
	Moldova	0,6	2,0
	Koreya	-	1,7
	Belarus	0,5	1,2
	Belgiya	0,9	1,2
	Ukraina	2,6	1,2
	Xitoy	14,2	1,1
	Tojikiston	0,0	1,0
	Isroil	0,4	0,7
	Boshqa davlatlar	25,9	69,5



Viloyatning to'qimachilik sanoatini diversifikatsiya qilish va tayyor mahsulotlar eksportini rag'batlantirish borasidagi amaliy ishlar natijasida mamlakatimizning ushbu sohadagi salohiyati va hamkor davlatlardagi to'qimachilik bozoridagi ulushi oshib bormoqda.

To'qimachilik mahsulotlarining eng katta ulushi Rossiya (**30,8 % – 58,3 mln. AQSH dollari**) va Qozog'iston (**8,3 % – 13,5 mln. AQSH dollari**) davlatlari hissasiga to'g'ri keldi.



## NAMANGAN VILOYATINING IMPORTI




2023- yilning yanvar-may oyida import hajmi **312,9** mln. AQSH dollarini va 2022- yilning mos davriga nisbatan **108,5 %** ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalarini (**29,3 %**), sanoat tovarlari (**23,8 %**) hamda Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (**17,8 %**) hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2023- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2023- yilning yanvar-may oyida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan **24,4** mln. AQSH dollariga ko'paydi va **312,9** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## NAMANGAN VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)


XSST tarkibi	Mln. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
<b>Jami import</b>	<b>288,5</b>	<b>312,9</b>	<b>119,4</b>	<b>108,5</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	39,2	55,8	117,4	142,4	13,6	17,8
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	14,6	19,1	96,6	130,8	5,1	6,1
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	11,1	5,7	225,9	51,1	3,8	1,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	10,2	8,3	143,3	81,8	3,5	2,7
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	37,1	34,1	121,8	91,8	12,9	10,9
Sanoat tovarlari	61,7	74,6	107,8	120,8	21,4	23,8
Mashinalar va transport asbob- uskunalar	106,5	91,8	125,2	86,2	36,9	29,3
Turli xil tayyor buyumlar	7,9	7,7	98,1	97,7	2,7	2,5
Boshqa tovarlar	-	15,6	-	-	-	5,0



2023- yil yanvar-may natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi **29,8 %** ni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan **87,4 %** ga kamaydi.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-may, *mln. AQSH dollari*,  
ulushi, % da)



2023- yil yanvar-may oyida Namangan viloyati **66** ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (XXR, Rossiya, Turkiya, Qozog'iston, Germaniya, Polsha va Hindiston) jami importning **2/3** qismini tashkil etdi.



### VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2023- yil yanvar-may, % da)







**NAMANGAN VILOYATINING ASOSIY HAMKOR  
DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI  
HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI**  
(yanvar-may, yillar kesimida)

Davlatlar	Mln. AQSH dollarri		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2022	2023	2022	2023	2022	2023
Xitoy	123,9	99,5	147,3	80,3	1	1
Rossiya Federatsiyasi	44,4	43,8	113,9	98,7	2	2
Qozog'iston	24,7	26,9	80,8	108,8	3	3
Turkiya	18,6	26,2	62,5	140,9	4	4
Germaniya	8,9	14,9	220,6	167,4	5	5
Belarus	6,8	14,1	213,5	208,1	8	6
Polsha	3,5	10,9	148,6	312,9	12	7
Litva	7,8	10,1	826,1	129,9	6	8
Koreya Respublikasi	7,6	9,1	192,2	120,1	7	9
Hindiston	4,7	6,9	53,7	146,8	10	10
Malayziya	2,2	6,5	69,6	295,9	15	11
Italiya	1,9	6,4	115,6	335,5	16	12
Frantsiya	4,0	5,8	103,2	143,7	11	13
Qirg'iziston	5,4	4,9	228,1	91,0	9	14
Shveytsariya	1,6	3,2	136,4	200,1	17	15
Eron	2,4	2,4	129,9	103,1	14	16
Avstriya	0,1	2,0	36,8	1480,4	20	17
Niderlandiya	0,7	1,5	185,5	206,8	19	18
Syangan (Gonkong) (Brit.)	1,0	1,5	185,3	156,2	18	19
Ukraina	3,5	1,4	137,4	41,6	13	20



## NAMANGAN VILOYATNING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2023- yil yanvar-may)

	Hajm Mln. AQSH dollarlari	O'sish sur'ati, % da	Ulushi, % da
Namangan viloyati	312,9	108,5	100,0
Namangan sh.	159,6	138,0	51,0
<i>tumanlar:</i>			
Mingbuloq	5,0	114,7	1,6
Kosonsoy	9,6	46,9	3,1
Namangan	12,6	64,5	4,0
Norin	23,6	226,6	7,5
Pop	8,8	96,8	2,8
To'raqo'rg'on	23,7	185,4	7,6
Uychi	21,8	94,3	7,0
Uchqo'rg'on	3,4	44,7	1,1
Chortoq	14,9	84,3	4,8
Chust	20,0	56,2	6,4
Yangiqo'rg'on	9,8	80,9	3,1



Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Namangan shahri **51,0 %** bilan **159,6** mln. AQSH dollarini, eng quyisi esa Uchqo'rg'on tumani **1,1 %** bilan **3,4** mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



## MASHINALAR VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORTI



Viloyatda investitsiya muhitining yaxshilanib borayotgani sari va ushbu sohada amalga oshirilayotgan islohotlar natijasida mashina va asbob-uskunalar importining oshishi tabiiy hol.

Jumladan, 2023- yil yanvar-may oyida import tarkibida mashinalar va transport asbob-uskunalari hajmi **91,8 mln. AQSH dollarini** tashkil etib, 2023- yilning shu davriga nisbatan **86,2 %** ga kamaydi va importning umumiyligi hajmidagi ulushi **29,3 %** ga yetdi.



### MASHINA VA TRANSPORT ASBOB-USKUNALARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2023- yil yanvar-may)

**XXR**  
49,3 %  
45,3 mln.  
AQSH doll. 

**4**  
**Litva**  
5,6 %  
5,1 mln.  
AQSH doll. 

**2**  
**Turkiya**  
13,6 %  
12,5 mln.  
AQSH doll. 

**5**  
**Polsha**  
4,6 %  
4,3 mln.  
AQSH doll. 

**3**  
**Germaniya**  
10,0 %  
9,2 mln.  
AQSH doll. 




2023- yil yanvar-may oyida mashina va transport asbob-uskunalari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan **14,7 mln. AQSH dollariga** kamaydi. Ushbu tovarlarni Namangan viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi XXR — **45,3 mln. AQSH dollari** (49,3 %), Turkiya — **12,5 mln. AQSH dollari** (13,6 %) va Germaniya — **9,2 mln. AQSH dollari** (10,0 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2023 - yil yanvar-may oyida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi **74,6** mln. AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan **20,8** % ga ko'paydi hamda importning umumiyligi hajmidagi ulushi **23,8** % ga yetdi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2023- yil yanvar-may, ulushi, % da)

**32,0 mln. AQSH doll.**  
ulushi – 42,9 %



XXR

**16,4 mln. AQSH doll.**  
ulushi – 21,9 %



Rossiya

**6,7 mln. AQSH doll.**  
ulushi – 9,0 %



Turkiya

**5,9 mln. AQSH doll.**  
ulushi – 7,9 %



Qozog'iston

**4,9 mln. AQSH doll.**  
ulushi – 6,5 %



Germaniya



Sanoat mahsulotlari importida beshta yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Qozog'iston, Germaniya) jami importning 88,3 % ini tashkil qiladi, bu 65,8 mln. AQSh dollarini tashkil etadi.